O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djumaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдуджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каямов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELLAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDA FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	



ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURSLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULYAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLISH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
THE IMPACT OF DIGITAL PAYMENT SYSTEMS DEVELOPMENT ON THE BANKING SECTOR: A COMPARATIVE ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES	1459
Aziza Farmonovna Ergasheva, Rustam Olimjonovich Oltinov	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI	1477
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
O'ZBEKISTONDA TURISTLARGA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1483
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING SAMARALI YO'LLARI.....	1487
Adilov Mirkomil Miralimovich	
BUDJET JARAYONIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINING AMALDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	1494
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
KICHIK TADBIRKORLIK LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISHDA BANK KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	1499
Norqobilova Nargiza Abdigodirovna	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ISHTIROKI VA ULARDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	1504
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	



OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ISHTIROKI VA ULARDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Yuldashov Isomiddin Sidiqovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchi

E-mail: isamiddinyuldashov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston oliy ta'lim xizmatlari bozorida nodavlat oliy ta'lim muassasalarining ishtiroki, raqobat muhiti hamda ular tomonidan amalga oshirilayotgan marketing strategiyalarining mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Nodavlat OTMLarining ta'lim xizmatlarini shakllantirish, brendni rivojlantirish, abituriyentlarni jalb etish va ta'lim sifati orqali bozor ulushini oshirishdagi yondashuvlari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, marketing faoliyatini rivojlantirishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari, raqamli marketingning ahamiyati, ta'lim xizmatlari diversifikatsiyasi hamda ish beruvchilar bilan hamkorlikning strategik roli yoritiladi. Tadqiqot natijalari nodavlat oliy ta'lim sektorida marketing tizimini samarali tashkil etish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: nodavlat oliy ta'lim muassasalari, oliy ta'lim bozori, ta'lim xizmati, marketing faoliyati, marketing strategiyasi, raqamli marketing, brend boshqaruvi, raqobat muhiti, xizmat sifati, abituriyentlar ehtiyoji, ta'lim innovatsiyalari, bozor ulushi.

Abstract. This article analyzes the participation of non-state higher educational institutions in the higher education services market in Uzbekistan, the competitive environment, and the marketing strategies they implement. The article examines, based on scientific evidence, the approaches of non-state universities in shaping educational services, developing brands, attracting applicants, and increasing market share through education quality. The research also covers the challenges in developing marketing activities, ways to overcome these issues, the significance of digital marketing, diversification of educational services, and the strategic role of cooperation with employers. The results of the research will serve to develop practical recommendations for effectively organizing the marketing system in the non-state higher education sector.

Key words: non-state higher education institutions, higher education market, educational services, marketing activity, marketing strategy, digital marketing, brand management, competitive environment, service quality, applicants' needs, educational innovations, market share.

Аннотация. В данной статье анализируется участие частных вузов в рынке образовательных услуг Узбекистана, конкурентная среда и маркетинговые стратегии, которые они реализуют. Рассматриваются подходы частных вузов в формировании образовательных услуг, развитии бренда, привлечении абитуриентов и увеличении доли на рынке через повышение качества образования. Также в исследовании обсуждаются проблемы развития маркетинговой деятельности, пути их решения, значение цифрового маркетинга, диверсификация образовательных услуг и стратегическая роль сотрудничества с работодателями. Результаты исследования направлены на разработку практических рекомендаций по эффективной организации маркетинговой системы в секторе частного высшего образования.

Ключевые слова: частные высшие учебные заведения, рынок высшего образования, образовательные услуги, маркетинговая деятельность, маркетинговая стратегия, цифровой маркетинг, брендинг, конкурентная среда, качество услуг, потребности абитуриентов, образовательные инновации, рыночная доля.



KIRISH

O'zbekiston oliy ta'lim tizimi so'nggi yillarda jadal rivojlanib, raqobat muhiti keskinlashmoqda. Davlat tomonidan ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususan, nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini liberallashtirish, litsenziyalash va sifatni nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish natijasida xususiy oliy ta'lim sektori sezilarli darajada kengaydi. Shu bilan birga, talabalar va ularning ota-onalari orasida sifatli ta'limga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda, bu esa nodavlat oliy ta'lim muassasalari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Oliy ta'lim xizmatlari bozori o'zining murakkab tabiati bilan ajralib turadi. Bu bozorda raqobat nafaqat narx va xizmat sifati, balki brend imidji, ta'lim dasturlarining zamonaviyligi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va talabalar ehtiyojlariga moslashuvchanlik orqali shakllanadi. Shu bois, nodavlat oliy ta'lim muassasalari uchun marketing faqat abituriyentlarni jalb qilish vositasi emas, balki ta'lim xizmatlarining sifatini oshirish, brendni rivojlantirish, bozor ulushini kengaytirish va barqaror raqobat afzalliklarini yaratishning muhim vositasiga aylangan.

Marketingning mazmuni va roli nodavlat OTMLar kontekstida yangi ma'noga ega bo'lib, u ta'lim xizmatining har tomonlama tahlilini, bozor sharoitlariga mos strategiyalarni ishlab chiqishni, abituriyentlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, nodavlat oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda brend ishonchligi, xizmatlarning diversifikatsiyasi va innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqola O'zbekiston oliy ta'lim xizmatlari bozorida nodavlat OTMLarning ishtiroki va marketing faoliyatini rivojlantirishning ilmiy tahlilini taqdim etadi, amaliy tavsiyalar orqali NOTMLar faoliyatini samarali tashkil etish va bozor talablariga moslashishda yordam berishni maqsad qiladi. Tadqiqot natijalari nodavlat oliy ta'lim sektorining barqaror rivojlanishi, marketing tizimining takomillashuvi va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim xizmatlari bozori va nodavlat oliy ta'lim muassasalarining marketing faoliyatini o'rganish masalalari xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xalqaro tadqiqotlarda oliy ta'limni xizmatlar bozori sifatida ko'rish konsepsiyasi asosida marketing yondashuvlari muhimligi ta'kidlanadi. Kotler va Fox (1995) o'z ishlarida ta'lim xizmatlari marketingini boshqa xizmatlar marketingidan farqlanishi, ayniqsa, ta'lim sifatini baholashning sub'ektivligi, mijozlar ehtiyojlariga moslashuvchanlik va raqobat sharoitida brendni rivojlantirish jihatlari tahlil qilgan.

Shuningdek, Hemsley-Brown va Oplatka (2015) nodavlat oliy ta'lim muassasalari marketingining o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlaydi. Ularning fikriga ko'ra, NOTMLar bozorda muvaffaqiyatga erishish uchun abituriyentlar ehtiyojini chuqur o'rganishi, innovatsion ta'lim dasturlarini taklif qilishi va brend imidjini mustahkamlashi lozim. Bu jihat, ayniqsa, raqamli marketing vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va interaktiv kommunikatsiya orqali amalga oshiriladi.

Mahalliy tadqiqotlar doirasida, Jumanioyov (2018) O'zbekiston sharoitida nodavlat oliy ta'lim muassasalarining o'sish tendensiyalari va marketing faoliyatining zaruriyati haqida fikr bildiradi. U ta'kidlaydiki, NOTMLar uchun samarali marketing tizimi abituriyentlar oqimini barqarorlashtirish va ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning asosiy vositasidir. Shuningdek, Davletov (2020) o'z tadqiqotida NOTMLarda raqamli marketing, brendni shakllantirish va bozor tahlillarining ahamiyatini yoritadi.

Bundan tashqari, xalqaro tajribalar ham O'zbekiston sharoitida NOTMLar marketing strategiyasini takomillashtirishga asos bo'la oladi. Masalan, Buyuk Britaniya va AQShdagi nodavlat oliy ta'lim muassasalari abituriyentlar bilan individual yondashuv, professional PR va raqamli kommunikatsiya orqali bozor ulushini oshirish metodlarini muvaffaqiyatli qo'llamoqda (Maringe va Gibbs, 2009). Bu tajribalar O'zbekiston NOTMLari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, marketing faoliyatini rivojlantirishda asosiy yo'nalishlarni belgilashga yordam beradi.

Shu bilan birga, adabiyotlarda NOTM marketingidagi muammolar ham ko'rsatib o'tilgan. Bu muammolar qatoriga yetarlicha professional marketing kadrlarining yetishmasligi, bozor tahlilining ilmiy asosda olib borilmasligi, reklama va PR faoliyatiga mablag' yetarli darajada ajratilmasligi kiradi. Shu sababli, tadqiqotlar NOTMLar marketingini ilmiy asosda takomillashtirish va raqobatbardosh strategiyalarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim xizmatlari bozorida nodavlat OTMLar faoliyatini rivojlantirishda marketing tizimi muhim vosita hisoblanadi. Xalqaro va mahalliy tajribalar marketingning strategik rolini, raqamli va innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini hamda NOTMLar raqobatbardoshlikni oshirish yo'llarini yoritadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola mavzusi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi nodavlat oliy ta'lim muassasalarining marketing faoliyatini ilmiy asosda tahlil qilish va samaradorligini baholashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy usullar birlashtirilib, mavzuni keng qamrovda o'rganish imkonini berdi. Tadqiqotning nazariy asoslari sifatida ta'lim xizmatlari bozori, nodavlat oliy ta'lim muassasalarining o'sish tendensiyalari, marketingning nazariy kontseptsionalari va raqamli marketing yondashuvlari o'rganildi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotda bir qancha metodlar qo'llanildi:

1. Analitik va solishtirma tahlil: Bu metod yordamida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati, ta'lim xizmatlari bozori strukturasi va mavjud marketing strategiyalarini tahlil qilindi. Shuningdek, mahalliy va xalqaro tajribalar solishtirilib, samarali marketing yondashuvlari aniqlandi.

2. Statistik metodlar: Abituriyentlar oqimi, o'quv yillari bo'yicha qabul ko'rsatkichlari, ta'lim dasturlari bo'yicha talab va boshqa statistik ma'lumotlar yig'ilib, diagramma va jadval shaklida tahlil qilindi. Bu NOTMlarning marketing samaradorligini baholashga imkon berdi.

3. So'rov va intervyu metodlari: Nodavlat oliy ta'lim muassasalari rahbarlari, marketing bo'limi xodimlari, o'qituvchilar va talabalar bilan so'rov va intervyular o'tkazildi. Bu metod marketing faoliyatining amaliy natijalari, muammolari va samarali yondashuvlarini aniqlashda asos bo'ldi.

4. Hujjatlarni tahlil qilish: NOTMlarning ichki strategik hujjatlari, marketing rejalar, yillik hisobotlar va web-sayt materiallari tahlil qilindi. Bu tadqiqot natijalarini mustahkamlashga va real amaliy tajribalarni yoritishga xizmat qildi.

5. Raqamli marketingni o'rganish: Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn reklamalar, veb-sayt va boshqa elektron platformalar orqali NOTMlarning marketing strategiyalari tahlil qilindi. Bu metod zamonaviy marketing yondashuvlarining samaradorligini baholash imkonini berdi.

Tadqiqot maqsadlariga erishish uchun metodlarning uyg'un kombinatsiyasi qo'llanildi. Nazariy va amaliy tahlil birlashtirilib, NOTMlarda marketing faoliyatini takomillashtirish, abituriyentlar bilan samarali aloqalarni o'rnatish, raqobatbardosh brend imidjini yaratish va bozor ulushini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Shuningdek, tadqiqot davomida sifatli va miqdoriy ma'lumotlarni birlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu metodologiya NOTMlarning marketing faoliyatini tizimli o'rganish va ilmiy asosda tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari O'zbekiston nodavlat oliy ta'lim muassasalari (NOTM)ning bozor sharoitidagi faoliyati va marketing tizimini rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratildi. So'nggi yillarda nodavlat oliy ta'lim sektori jadal o'sib, abituriyentlar orasida talab ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, NOTMlarda qabul qilinayotgan talabalar soni yildan-yilga oshmoqda, bu esa marketing faoliyati va brend strategiyalarining samaradorligini ko'rsatadi.

So'rov va intervyular natijalariga ko'ra, NOTMlar abituriyentlarni jalb qilishda ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, ochiq eshiklar kunlari va ta'lim yarmarkalaridan faol foydalanadi. Raqamli marketing vositalari abituriyentlar bilan samarali aloqani o'rnatishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, NOTMlar maktab va kollejlarni hamkorlik orqali talabalarni erta bosqichdan jalb qilish amaliyotini yo'lga qo'ygan.

Hujjatlar va so'rov natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, marketing faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishda qator muammolar mavjud. Eng asosiylari marketing bo'yicha malakali kadrlarning yetishmasligi, reklama va PRga ajratiladigan mablag'ning cheklanganligi hamda bozor tahlilining yetarli darajada olib borilmasligi hisoblanadi. Shu bilan birga, xizmat paketlarini diversifikatsiya qilish va ish beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish imkoniyatlari yetarlicha ishlatilmayapti.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli NOTMlar marketingni ta'lim sifati va brend imidjini oshirish vositasi sifatida qo'llaydi. Bitiruvchilarning ishga joylashuvi, xalqaro akkreditatsiyalar, professor-o'qituvchilar malakasi va zamonaviy o'quv dasturlari brend qiymatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Raqamli marketing va innovatsion yondashuvlar NOTMlarning abituriyentlar bilan samarali aloqalarini o'rnatishda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda maqsadli reklama, SEO, video-kontent va onlayn platformalar orqali interaktiv kommunikatsiya marketing strategiyasining asosiy elementidir. Shu bilan birga, qisqa muddatli kurslar va professional qayta tayyorlash dasturlari xizmatlar diversifikatsiyasini oshirib, abituriyentlarni jalb qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatadiki, nodavlat oliy ta'lim muassasalari bozordagi raqobatbardoshligini oshirishda marketing tizimini tizimli va strategik ravishda qo'llashi zarur. Raqamli marketing, brend imidji, xizmat diversifikatsiyasi va ish beruvchilar bilan hamkorlik asosiy strategik yo'nalishlardir. Shu orqali NOTMlar bozor talablariga moslashadi, abituriyentlar oqimini barqarorlashtiradi va ta'lim xizmatlari sifatini oshiradi (1-jadval).



1-jadval. Nodavlat oliy ta'lim muassasalarining marketing faoliyati va bozor samaradorligi (O'zbekiston, 2022–2024)¹

Ko'rsatkichlar	2022 yil	2023 yil	2024 yil	O'zgarish (%)
Qabul qilinayotgan talabalar soni	8 200	9 000	9 750	+18,9%
Marketing byudjeti (mln so'm)	400	460	520	+30%
Ijtimoiy tarmoqlar orqali jalb qilingan abituriyentlar (%)	32%	36%	41%	+9%
Veb-sayt trafik hajmi (oylik, ming kishi)	28,0	31,5	36,8	+31,4%
Ochik eshiklar va ta'lim yarmarkalari soni	20	22	25	+25%
Brend imidji reytingi (1–5 ball)	3,9	4,1	4,4	+0,5
Bitiruvchilarning ishga joylashuv darajasi (%)	75%	78%	82%	+7%
Kurslar va qo'shimcha ta'lim dasturlari	O'rta	O'rta	Yuqori	—
Ish beruvchilar bilan hamkorlik	Kam	O'rta	Faol	—
Talaba qoniqishi reytingi (1–5 ball)	4,0	4,2	4,5	+0,5

2022–2024 yillarida O'zbekiston nodavlat oliy ta'lim muassasalarining marketing faoliyati va bozor samaradorligi ijobiy tendensiyaning ko'rsatadi. Qabul qilinayotgan talabalar soni uch yil ichida 8 200 dan 9 750 kishigacha oshib, 18,9% ga o'sdi. Bu ko'rsatkich NOTMlarning abituriyentlarni jalb qilish bo'yicha marketing strategiyalarini samarali qo'llayotganini bildiradi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali jalb qilingan abituriyentlar ulushi 32% dan 41% gacha oshishi raqamli marketingning samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, veb-sayt trafik hajmining o'sishi (oylik 28 ming kishidan 36,8 ming kishigacha) NOTMlarning onlayn kommunikatsiya va interaktiv xizmatlar orqali abituriyentlar bilan samarali aloqani yo'lga qo'yganini ko'rsatadi.

Marketing byudjeti 400 mln so'mdan 520 mln so'mgacha oshishi NOTMlarning reklama va PR kampaniyalariga ajratiladigan resurslarni kengaytirayotganini ifodalaydi. Ochik eshiklar va ta'lim yarmarkalari sonining oshishi (20 dan 25 gacha) esa marketing strategiyasining ko'p kanalli yondashuv orqali abituriyentlar bilan shaxsiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilganini ko'rsatadi.

Brend imidji reytingining 3,9 ballidan 4,4 ballgacha oshishi va bitiruvchilarning ishga joylashuv darajasining 75% dan 82% gacha o'sishi NOTMlarning nafaqat abituriyentlar, balki ish beruvchilar bilan ham ishonchli aloqalar o'rnatayotganini aks ettiradi. Shu bilan birga, kurslar va qo'shimcha ta'lim dasturlarining diversifikatsiyasi yillar davomida oshib, 2024 yilda yuqori darajaga yetgan, bu esa NOTMlarni raqobatbardosh qilish va talabalarga ko'proq malaka imkoniyatlarini taqdim etishda muhim rol o'ynaydi.

Talaba qoniqishi reytingining 4,0 dan 4,5 ballgacha oshishi NOTMlarning xizmat sifatini yaxshilash va marketing faoliyati orqali talabalarining ehtiyojlarini qondirishga intilayotganini ko'rsatadi. Ish beruvchilar bilan hamkorlikning faollashishi esa amaliyot va qo'shma dasturlar orqali ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Umuman olganda, jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, NOTMlarning marketing faoliyati tizimli va strategik tarzda rivojlanmoqda. Raqamli marketing vositalari, brend imidjini oshirish, xizmat diversifikatsiyasi va ish beruvchilar bilan hamkorlik bozor raqobatbardoshligini mustahkamlash va abituriyentlar oqimini barqarorlashtirishning asosiy vositalari sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, marketing faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va bozor tahlillarini doimiy olib borish kelgusida samaradorlikni yanada oshirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada Oliy ta'lim xizmatlari bozorida nodavlat oliy ta'lim muassasalarining roli va ularda marketing faoliyatini rivojlantirish masalalari o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, nodavlat oliy ta'lim muassasalari bozorda o'z o'rnini mustahkamlash va abituriyentlarni jalb qilishda faol marketing strategiyalaridan foydalanishlari zarur. Bu jarayonda muassasaning xizmatlari, ta'lim dasturlari va brend imidji samarali targ'ib qilinishi kerak.

Mavzu doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar marketingning nodavlat oliy ta'lim muassasalari uchun strategik ahamiyatini aniq ko'rsatdi. Zamonaviy raqobat muhitida muassasalar abituriyentlar ehtiyojlarini chuqur

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ta'lim sifatini nazorat qilish va rivojlantirish bo'yicha hisobotlari (<https://www.edu.uz>)



tahlil qilish, ular bilan samarali aloqa o'rnatish va xizmatlarini bozor talablari asosida jadal optimallashtirish orqali o'z raqobatbardoshligini oshira oladi. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar va PR-faoliyatdan foydalanish muassasaning brend imidjini mustahkamlash va talabalar orasida e'tiborini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, marketing faoliyati samaradorligini oshirish uchun muassasalarda tizimli yondashuv, zamonaviy innovatsion usullar va kelgusidagi tendensiyalarga moslashish zarur. Shundan kelib chiqib, nodavlat oliy ta'lim muassasalari uchun marketing faoliyati bu faqat reklama va targ'ibot emas, balki muassasaning strategik rivojlanishi va bozorda barqaror mavqeini ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi.

Umuman olganda, nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketingni samarali yo'lga qo'yish ularning bozordagi barqarorligi, raqobatbardoshligi va ta'lim xizmatlarining sifatini oshirishga imkon beradi. Kelgusidagi tadqiqotlar marketing strategiyalarining iqtisodiy samaradorligi va abituriyentlar rivojiga ta'sirini tahlil qilishga qaratilsa, muassasalarning raqobatbardoshligini yanada mustahkamlash imkoniyati yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kotler, P., & Fox, K. F. (1995). Strategic Marketing for Educational Institutions. Englewood Cliffs: Prentice Hall.
2. Hemsley-Brown, J., & Oplatka, I. (2015). University marketing: A critical review of the literature. International Journal of Nonprofit and Voluntary Sector Marketing, 20(3), 239-258.
3. Jumaniyozov, M. (2018). O'zbekiston sharoitida nodavlat oliy ta'lim muassasalarining o'sish tendensiyalari. Oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlar, 1, 45-49.
4. Davletov, B. (2020). Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing va brendni shakllantirish. Ta'limda yangiliklar va innovatsiyalar, 4, 75-80.
5. Maringe, F., & Gibbs, P. (2009). Marketing higher education: Theory and practice. The International Journal of Educational Management, 23(4), 311-328.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>